

ZAMONAVIY TA'LIM TARAQQIYOTIDA INFORMATSION MADANIYAT VA
MA`NAVIYATNING AHAMIYATI

Sultanova Gulnoza Sabirovna

Samarqand davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrasi dotsenti (DSc)

Tangriberdiyeva Aziza Elmurod Qizi

Samarqand davlat universiteti Yuridik fakulteti falsafa yo`nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrning asosiy tayanchi bo`lgan yoshlarning innovatsion tafakkurining yuksalib borishi natijasida jamiyatning yanada taraqqiylashuvi va ilm-fan olamida raqobatbardosh kadrlarning vujudga kelishi, bugungi kunda innovatsion texnologiyalar va kommunikatsiyalar davrida insoniyat faoliyatida yuzaga kelgan informatsion madaniyatni innovatsion tafakkur doirasida to`g`ri qabul qilish va yetarli darajada amaliyotga tadbiq qilish borasida mulohazalar keltirib o`tilgan. Informatsion madaniyat rivoji ayni vaqtida jamiyat hayoti va yuksalishida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi to`g`risida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: Tafakkur, ong, innovatsiya, informatsiya, g`oya, madaniyat, ta`lim, ilm-fan, taraqqiyot.

Alloh taolo barcha maxluqotlar ichida insonni ongi va tafakkuri ila afzal qildi. Va shu bilan birgalikda insoniyat tashqi olam bilan o`zaro munosabatda axborot almashina boshlagan. Alloh taolo insoniyatning tafakkur faoliyati haqida, "Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir" , - deydi. Ilmiy tomondan yondashadigan bo`lsak tafakkur- bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir.[1,B 60.] Jamiyat, davlat tushunchasi paydo bo`libdiki, har qaysi jamiyat va davlatning barqaror yuksalishi, hamda rivojlanishi insongagina bog`liq bo`lgan jarayonlardan biri, ya`ni yosh avlodning ilmiy, ma`naviy, axloqiy va diniy salohiyatiga bog`liq bo`lib kelgan. Sh.Mirziyoyev ta`biri bilan aytganda: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo`liga o`tmoqdamiz. Bu bejiz emas albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g`oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi". [2,B.20.] Hozirgi taraqqiyot asrida yashar ekanmiz, innovatsion tafakkur doirasida, innovatsion texnika va texnologiyalarni chuqur o`rganish, axborotlashgan jamiyat sari kirib borish, virtual olam ne`matlaridan to`g`ri yo`lda foydalana bilish jamiyatda informatsion madaniyatni namunali tarzda shakllantira oladi. Biz informatsion madaniyatni umumiy ko`rinishda o`rganishimizdan avval "informatsiya" so`zining tub ma`nosini bilishimiz, tahlil qilishimiz lozim. Demak, "informatsiya" lotincha "information"- tushuntirish, bayon qilish degan ma`noni anglatadi. Informatsiya:

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

1. Odamlar bir-biriga og`zaki, yozma yoki boshqa usulda beradigan axborot. Shuningdek, axborot berish va olish jarayoni tushuniladi.

2. Fan va texnikadagi tushuncha. Bu tushuncha faqat odamlar orasidagi axborotni emas, balki odam bilan avtomat, avtomat bilan avtomat (kibernitekada) o`rtasidagi axborotni, hayvonlarda va o`simliklar o`rtasidagi signallar almashinuvini ham o`z ichiga oladi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab, turli hodisa va jarayonlarni tavsiflashda informatsiya tushunchasidan foydalanishga harakat qilib kelinmoqda.[3] Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assemblyasi 72-sessiyasida shunday ta`kidni keltirib o`tgan “ Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo`lib kamolga yetishi bilan bog`liq. Bizning asosiy vazifamiz –yoshlarning o`z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo`ravonlik g`oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko`p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O`zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilganxalqaro huquqiy hujjat- BMTning Yoshlar huquqlari to`g`risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o`z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo`nalishlaridan biri darajasiga ko`tarish bo`yicha qat`iy majburiyatlarni o`z zimmasiga olishi kerak” [4]

Shuningdek, ta`lim hayot tarzimizdagi eng muhim bosqich bo`lib, tizimning asosiy vazifasi va maqsadi kelajak avlodni har tomonlama mukammal va raqobatbardosh qilib shakllantirish, hamda rivojlantirishdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda bugungi kunimizda ta`lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan; -eng avvalo ta`limga o`z soxasining yetuk mutaxassisidagi bo`lgan, o`z ustida tinimsiz izlanishlar olib boruvchi tajribaga ega malakali kadrlar bilan ta`minlash;-ta`lim berish jarayonida zamonaviy va qiziqarli metodlardan, innovatsion texnika, hamda texnologiyalardan foydalanish;nazariyaga nisbatan amaliyotning yuqori darajadaligini ta`minlash;

Hozirgi vaqtida yoshlarimizning innovatsion tafakkuri, informatsion madaniyati, internet olami bilan uzviy aloqalarining yuksalishi natijasida har qanday sohada maqsadli natijalarga erishilmoqda. Shu bilan bir qatorda innovatsion tafakkur natijasida vujudga kelgan texnologiyalar hozirgacha his qiluvchi miyamizning zaif algoritmlaridan foydalanib kelmoqda. Texnika va texnologiya bizni kamroq bardoshli qilib, ko`proq turli oldi-qochdi o`yin kulgularga, ko`ngilxushliklarga moyil qilish ustida ko`p ishladi.Texnologiyalar sayyoramizdagidagi ko`pchilikni qasshoqlik va zolimlikdan xalos qilgan bo`lsa ham, u yangi turdagini

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

zulmni ishlab chiqardi: bo`sh va ma`nosiz xilma-xillik, keraksiz tanlovlarning cheksiz oqimi.[5, B.231]. Har bir inson taffakur darajasi va bilimi natijasida jamiyatda ma`lum bir mavqeiga ega bo`ladi. Insoniyatning butun umri mobaynida erishgan asosli bilimlari, umrining so`nggiga qadar hamroh bo`ladi.

Yuqoridagi fikrlar yuzasidan quyidagi xulosaga kelamiz:

Birinchidan. Hozirgi taraqqiyashib borayotgan informatsionlashgan davrda va jamiyatda, har birimizning faoliyatimiz so`zsiz innovatsion texnika va texnologiyalar bilan o`zaro bog`lanib bormoqda. Ayni vaqtida innovatsion texnologiyalar va internet olamisiz hayotimizni tasavvur qilib bo`lmaydigan vaqtida tarmoqlardan o`rinsiz ma`lumotlarni qidirish bilan ovvora bo`lmasdan, uning ijobjiy imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida targ`ib qilish, hamda o`zimizning maqsadli ehtiyojlarimizni qondirish maqsadida foydalansak yanada ulkan zafarlarga ega bo`la olamiz.

Ikkinchidan. Har bir sog`lom ong sohibi o`zida innovations tafakkurlash qobiliyatini imkoniyat darajasida shakllantira olsa, atrofdagilarga nisbatan noodatiy tarzda kengroq va tushunarliroq fikr yurita oladi, o`z nutqini erkin bayon qila oladi, hamda hayotda o`zining yuqori mavqeiga ega bo`ladi. Shunday ekan o`z ustimizda doimo izlanishda va harakatda bo`lishimiz bugungi zamon talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. G.Sultanova. Bilish falsafasi. O`quv-uslubiy qo`llanma. Samarqand. 2020, -159b.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so`zlagan nutqi. T.: "O`zbekiston". NMIY, 2018 -B.20.
3. uz.wikipedia.org.
4. strategy.uz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so`zlagan nutqidan.
5. Mark Mensen.Hammasi rasvo.T.: "Muharrir". 2020,-239b.